

KENG KO'LAMLI O'QISHNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDAGI
O'RNI

Xayriddinova Madina Mirzoxid qizi

Toshkent: "Diplomat University" talabasi.

Scientific advisor: Mamadjanova Dildora Ulugbek kizi

+998 97 111 45 59

madinaxayriddinova55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada keng ko'lamli o'qishning so'z boyligini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Bu mavzuning muhim sababi shundaki, til o'rganuvchi o'quvchi yoki talabalar keng ko'lamdagi ilmiy adabiyotlar yoki badiiy asarlar o'qisa, ularning fikrlash doirasi va so'z boyligi oshadi. Shuni ta'kidlash kerakki, so'z boyligini oshirish oson emas. Ba'zi til o'rganuvchi o'quvchi va talabalarning xotirasi zaif bo'lishi yoki ummuman eslab qololmasligi ham mumkin. Ammo bu muammo, hamma til o'rganuvchilarda kuzatilmaydi. Til o'rganishni hohlagan o'quvchi, so'z boyligini oshirish va rivojlantirish uchun, avvalo, miya faoliyatini va xotirani rivojlantirishi lozim.

Kalit so'zlar: So'z boyligi, Keng ko'lamli o'qish, Til o'rganuvchilar, Xotira, Til o'rganish metodikasi.

Abstract. This article examines the role of extensive reading in increasing vocabulary. The important reason for this topic is that when language learners or students read a wide range of scientific literature or works of art, their thinking and vocabulary increase. It should be noted that increasing vocabulary is not easy. Some language learners and students may have weak memory or may not be able to remember at all. However, this problem is not observed in all language learners. A student who wants to learn a language must first develop brain activity and memory in order to increase and develop vocabulary.

Keywords: Vocabulary, Extensive reading, Language learners, Memory, Language learning methodology.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль обширного чтения в расширении словарного запаса. Важность этой темы заключается в том, что когда изучающие язык или студенты читают широкий спектр научной литературы или произведений искусства, их мышление и словарный запас расширяются. Следует отметить, что расширение словарного запаса — непростая задача. У некоторых изучающих язык или студентов может быть слабая память или они могут вообще ничего не запоминать. Однако эта проблема наблюдается не у всех изучающих язык. Студент, желающий выучить язык, должен сначала развить мозговую активность и память, чтобы расширить и развить словарный запас.

Ключевые слова: Словарный запас, Обширное чтение, Изучающие язык, Память, Методика изучения языка.

Kirish. Hozirgi zamonda chet tillari rivojlanib, yangi soʻzlar kirib kelmoqda va til oʻrganishga boʻlgan talab oshmoqda. Ammo til oʻrganish jarayonida til oʻrganayotgan oʻquvchilarning aksariyati bor eʼtiborini faqat grammatika qoidalarini yodlashga qaratadi. Buning natijasida grammatikani yaxshi bilgan oʻquvchi muloqotga, matnlarni tarjima qilishga va fikrini erkin bayon qilishga qiynaladi. Statistik maʼlumotga koʻra, ikkinchi tilni oʻrganuvchilar erkin muloqot va matnlarni tushunishga kamida 5000 soʻz talab qilinadi. Ushbu koʻrsatkich til oʻrganayotgan oʻquvchi faqat grammatik strukturaga emas, balki soʻz boyligini ham oshirishi kerakligini koʻrsatadi.

Soʻz boyligini shunchaki lugʻat maʼnolarini yodlash emas, balki oʻsha soʻzni "borliqqa qanday mos tushishini bilish" deb taʼriflangan (Stahl, 2005). Uning bu fikricha, til oʻrganayotgan oʻquvchi soʻzlarning shunchaki yodlab ketishi boʻlmaydi. Balki yod olayotgan soʻzlarini hayotdagi voqealarga, hodisalarga va hissiyotlarga qanday bogʻlanishini anglash talab etiladi.

Afsuski, koʻplab til oʻrganayotgan oʻquvchilarda eslab qolish darajasi past boʻlganligi tufayli, oʻqigan yoki yod olingan soʻzlar xotiradan koʻtariladi va unutiladi. Aynan mana shu muammoni bartaraf etish uchun keng koʻlamli oʻqish eng samarali uslub hisoblanadi. Oʻquvchi oʻzi qiziqqan badiiy yoki ilmiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qilsa, miya kundalik charchoq va stressdan chalgʻib dam oladi.

Asosiy qism. Til oʻrganish metodikasida keng koʻlamli oʻqish tushunchasi oʻquvchining soʻz boyligini kengaytirib, uni oshirish va mutolaadan zavq olish maqsadida tashkil etilgan oʻqish jarayoni hisoblanadi. Keng koʻlamli oʻqish metodikasining taniqli tadqiqotchilari Richard Dey va Julian Bamford (Day & Bamford, 1998) oʻzlarining ilmiy ishlarida bu jarayonning asosiy qoidalarini belgilab berishgan. Ularning tadqiqotlariga koʻra, oʻquvchi mutolaa qilayotganda matnni toʻliq anglab yetish uchun undagi soʻzlarning kamida 95-98 foizi unga tanish boʻlishi kerak. Bu tadqiqot shuni koʻrsatadiki, agar matn mana shu mezon asosida toʻgʻri tanlansa, til oʻrganuvchi har bir notanish soʻzni lugʻatdan qidirib chalgʻimasdan, matn mazmunini tabiiy va oson ravishda eslab qoladi.

Leksik birliklarni faol xotiraga oʻtkazish uchun ularni matn ichida har xil vaziyatlarda kamida 10 dan 16 martagacha vizual idrok etish zarurligi aniqlangan (Nation, 2001). Keng koʻlamli oʻqish jarayoni esa oʻquvchilarga aynan shu imkoniyatni beradi. Yaʼni bir xil soʻzlar kitobning turli sahifalarida takror - takro kelishi orqali miya uni oʻzi avtomatik tarzda tez va oson oʻzlashtiradi. N. Shmitt (Schmitt, 2008) taʼkidlaganidek, bu jarayon yangi leksikani qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga oʻtkazishga yordam beradi.

Bundan tashqari, keng koʻlamli oʻqish psixologik tomoni ham bor. Anʼanaviy til oʻrganish jarayonida oʻquvchilar "xato qilishdan qoʻrqish" yoki "barcha soʻzlarni eslab qola olmayman" degan kuchli psixologik bosim ostida boʻladilar. Biroq, oʻquvchi oʻz qiziqishiga mos keladigan badiiy adabiyot yoki ilmiy-ommabop kitoblarni xotircham mutolaa qilganda, oʻquv jarayoni majburiyatdan zavq olish darajasiga koʻtariladi. Maʼlumotlarga koʻra, erkin va mustaqil oʻqish jarayoni miyani kudalik oʻquv charchoqlaridan chalgʻitadi. S. Krashen (Krashen, 2004) yozganidek, mutolaa kuchli

motivatsiya manbai bo'lib, miyaning dam olish holatida axborotni qabul qilish qobiliyati oshishi sababli, yangi o'rganilgan so'zlar hech qanday zo'riqlarsiz xotirada uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

Keng ko'lamli mutolaa til o'rganayotgan o'quvchida so'zlarning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki ularning gap ichida qanday shaklda, ya'ni qaysi so'zlar bilan birga kelishini ham shakllantiradi. Aks holda, muayyan bir talaba so'zning faqat lug'aviy tarjimasini biladi-yu, ammo u so'z gap ichida boshqa bir shaklda va mutloq boshqa ma'noda kelganda tushunmay qoladi. Bu esa keyinchalik jonli muloqot va tarjima jarayonida til o'rganuvchiga katta muammo tug'diradi. Shuning uchun ham o'quvchi o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda xatosiz, tabiiy hamda ravon bayon qila olishi uchun keng ko'lamli o'qish orqali so'z boyligini oshirish kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chet tillarini o'rganishda faqatgina grammatik qoliplarga bog'lanib qolish muloqot va tarjima jarayonlarida leksik yetishmovchilikni yuzaga keltiradi. So'zlarni quruq va kontekstdan ayri holda mexanik yodlash kognitiv xotiraning sustlashishiga va ma'lumotlarning tez unutilishiga sabab bo'ladi. Keng ko'lamli o'qish metodikasi esa til o'rganuvchilarga leksik birliklarni borliq unsurlari va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lagan holda, jonli matn ichida o'zlashtirish imkonini beradi.

Maqolada tahlil qilingan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyat o'quvchining psixologik holatiga ham bevosita bog'liqdir. Keng ko'lamli mutolaa talabalarni an'anaviy dars xonalaridagi "barcha so'zni majburlab yodlash" va xato qilish qo'rquvidan xalos etadi. Miyaning erkin va stresssiz holatda ishlashi axborotni uzoq muddatli xotiraga muhrlash koeffitsiyentini oshiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, talabalarning o'z fikrini erkin, ravon va xatosiz bayon qila olishlari uchun ta'lim amaliyotida keng ko'lamli o'qish metodikasidan unumli foydalanish zarur. O'quvchilarga o'z til darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan badiiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qilish tavsiya etiladi. Zero, so'z zaxirasini erkin muloqot uchun kerakli bo'lgan 5000 taga va undan ko'proqqa yetkazish shunchaki lug'at yodlash orqali emas, balki so'zlarni matn tarkibida takror-takror vizual idrok etish va ularning jonli funksiyasini anglash orqali amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Day, R. R., & Bamford, J. (1998). *Extensive Reading in the Second Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Krashen, S. (2004). *The Power of Reading: Insights from the Research* (2nd ed.). Westport, CT: Libraries Unlimited.
3. Laufer, B., & Ravenhorst-Kalovski, G. C. (2010). Lexical threshold for reading comprehension: What vocabulary size is needed for comprehension? *Reading in a Foreign Language*, 22(1), 15–30.
4. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

5. Schmitt, N. (2008). Review article: Instructed second language vocabulary learning. *Language Teaching Research*, 12(3), 329–363.
6. Stahl, S. A. (2005). Vocabulary Development. *Electronic Journal of Literacy through Animation*, 3(1), 12–14.

